“Moviy va oq chinni – Buyuk ipak yo’li ulug’vorligi ramzi” nomli ko’rgazma ochildi

2018-yil 15-oktabr kuni O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbekiston tarixi muzeyida “Bir makon va bir yo’l” tashabussi doirasidagi “Moviy va oq chinni – Buyuk ipak yo’li ulug’vorligi ramzi” nomli ilmiy-madaniy ko’rgazmaning ochilishiga bag‘ishlangan tadbir bo’lib o’tdi.

Unda muzey direktori Jannat Ismoilova, O‘zR FA vitse-prezidenti B.A.Abduxalimov, Xitoy Xalq Respublikasining O‘zbekistondagi favqulotda va muxtor elchisi Jiang Yan xonim hamda Shanxay munitsipolitetini fan va texnika komissiyasi vakili janob Xie Werlan nutq so‘zlab, ushbu ko‘zgazma Buyuk ipak yo‘lida joylashgan ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidladilar.

Ushbu ko‘rgazma O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbekiston tarixi muzeyi, Xitoy Xalq Respublikasining Shanxay muzeyi hamda Shanxay Fan va texnologiya muzeylari bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Eslatib o‘tamiz, bu ko‘zgazma 15 dekabrga qadar davom etadi.